

<p style="text-align: center;"><b>«УТВЕРЖДЕНО»</b> <b>решением единственного акционера</b> <b>АКБ «ТиБиСи Банк»</b> <b>от «10» июля 2020 года</b> <b>№ 45</b></p> <p style="text-align: center;"><i>Вахтанг Буцхрикидзе</i> <i>От имени единственного акционера</i></p>	<p style="text-align: center;"><b>“TBC Bank” ATB</b> <b>yagona aksiyadorining</b> <b>2020-yil 10-iyuldagi</b> <b>45 - son qarori bilan</b> <b>“TASDIQLANGAN”</b></p> <p style="text-align: center;"><i>Vaxtang Butsxrikidze</i> <i>Yagona aksiyador nomidan</i></p>
<p style="text-align: center;"><b>ПОЛОЖЕНИЕ</b> <b>об Общем Собрании Акционеров АКБ «ТиБиСи</b> <b>Банк»</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>“TBC Bank” ATB</b> <b>aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida</b> <b>N I Z O M</b></p>
<p>Настоящее Положение разработано в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан и Уставом АКБ «ТиБиСи Банк».</p>	<p>Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va “TBC Bank” ATB Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.</p>
<p><b>1. ОБЩИЕ ПОЛОЖЕНИЯ</b></p>	<p><b>1. UMUMIY QOIDALAR</b></p>
<p>1. Положение определяет статус и регламентирует работу Общего собрания акционеров АКБ «ТиБиСи Банк» (далее - Банк), а так же определяет порядок принятия Общим Собранием Акционеров решений, отнесенных в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и Уставом, к компетенции Общего Собрания Акционеров Банка.</p>	<p>1. Mazkur Nizom “TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi maqomini belgilaydi va Aksiyadorlar Umumiy Yig‘ilishi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi ba Ustavga muvofiq Bank aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan qarorlar qabul qilinishini tartibga soladi.</p>
<p>2. Настоящее положение разработано в соответствии со следующими нормативно-правовыми документами:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Закон Республики Узбекистан «О банках и банковской деятельности» (в новой редакции);</li> <li>• Закон Республики Узбекистан «О Центральном Банке Республики Узбекистан» (в новой редакции);</li> <li>• Закон Республики Узбекистан «Об акционерных Обществах и защите прав акционеров» (в новой редакции);</li> <li>• Кодексом корпоративного управления, утвержденного протоколом заседания Комиссии по повышению эффективности деятельности акционерных Обществ и совершенствованию системы корпоративного управления от 31.12.2015г. №9;</li> <li>• «Положение о корпоративном управлении в коммерческих Банках» № 943 от 05.07.2000г.;</li> <li>• а также нормативно-методическими указания Центральное Банка Республики Узбекистан;</li> <li>• Устав Банка.</li> </ul>	<p>2. Mazkur Nizom quyidagi me‘yoriy va huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda);</li> <li>• O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Banki to‘g‘risida” gi Qonuni (yangi tahrirda);</li> <li>• O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda);</li> <li>• Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig‘ilishining 31.12.2015 yildagi 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi.</li> <li>• 05.07.2000 yildagi 943-son "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida nizom";</li> <li>• shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy-uslubiy ko'rsatmalari;</li> <li>• Bank Ustavi.</li> </ul>
<p>3. Высшим органом управления Банка является</p>	<p>3. Bankning oliy boshqaruv organi Aksiyadorlar Umumiy</p>

<p>Общее Собрание Акционеров, в компетенцию которого входят рассмотрения вопросов, относящихся законодательством Республики Узбекистан и Уставом, к компетенции Общего Собрания Акционеров.</p>	<p>Yig’ilishi bo’lib, uning vakolatiga O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Ustavga muvofiq Aksiyadorlar Umumiy Yig’ilishining vakolatiga taalluqli masalalarni ko’rib chiqish kiradi.</p>
<p>4. Необходимым условием соблюдения прав и законных интересов Банка является установление регламента и процедур принятия решений таким образом, чтобы они обеспечивали законность принятых решений и их неукоснительное соблюдение всеми структурными подразделениями Банка.</p>	<p>4. Bankning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilishning zaruriy sharti qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va Bankning barcha tarkibiy bo’linmalari tomonidan ularga qat’iy rioya qilinishni ta’minlaydigan qarorlarni qabul qilish reglamenti va tartibini o’rnatishdir.</p>
<p>5. Общее Собрание Акционеров Банка рассматривает вопросы в пределах своей компетенции, определенной законодательством Республики Узбекистан и Уставом Банка.</p>	<p>5. Bank Aksiyadorlarining Umumiy Yig’ilishi masalalarni o’zining O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bank Ustavida belgilangan vakolati doirasida ko’rib chiqadi.</p>
<p>6. Рассмотрение иных вопросов, не относящихся к компетенции Общего Собрания Акционеров по итогам года, осуществляется Общим Собранием Акционеров Банка, в порядке, установленном законодательством и Уставом Банка.</p>	<p>6. Yil yakunlariga ko’ra Aksiyadorlar Umumiy Yig’ilishining vakolatiga taalluqli bo’lmagan boshqa masalalarni ko’rib chiqish qonun hujjatlarida va Bankning Ustavida belgilangan tartibda Bank Aksiyadorlarining Umumiy Yig’ilishi tomonidan amalga oshiriladi.</p>
<p>7. Банк ежегодно проводит Общее Собрание Акционеров (годовое общее собрание акционеров). Годовое общее собрание акционеров проводится не позднее чем через 6 (шесть) месяцев после окончания финансового года. Дата подведения итогов финансово-хозяйственной деятельности Банка за год определяется Советом банка с предварительного согласия Общего Собрания Акционеров Банка. Помимо годового общего собрания акционеров могут проводиться внеочередные общие собрания акционеров</p>	<p>7. Bank har yili Aksiyadorlar Umumiy Yig’ilishini (Aksiyadorlar yillik Umumiy Yig’ilishini) o’tkazadi. Aksiyadorlar yillik Umumiy Yig’ilishi moliya yili tugaganidan keyin 6 (olti) oydan kechiktirmay o’tkaziladi. Bankning bir yil davomidagi moliya-xo’jalik faoliyati natijalarini sarhisob qilish sanasi Bank Kengashi tomonidan Bank Aksiyadorlari Umumiy Yig’ilishining oldindan olingan roziligi bilan belgilanadi. Aksiyadorlarning yillik Umumiy Yig’ilishidan tashqari, Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig’ilishlari ham o’tkazilishi mumkin.</p>
<p><b>II. КОМПЕТЕНЦИЯ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ БАНКА</b></p>	<p><b>II. BANK AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG’ILISHI VAKOLATLARI</b></p>
<p>8. К исключительной компетенции Общего Собрания Акционеров Банка относится: 1) внесение изменений и дополнений в Устав Банка или утверждение Устава Банка в новой редакции; 2) реорганизация Банка, в том числе какое-либо слияние, присоединение, разделение, выделение и преобразование; 3) любые виды слияний, преобразований или каких-либо корпоративных сделок, приводящих к смене контроля над Банком (единая сделка или ряд связанных сделок, приводящих к изменению в прямом или косвенном владении 50 (пятидесятью)</p>	<p>8. Bank Aksiyadorlari Umumiy Yig’ilishining mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi: 1) Bank Ustaviga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi Bank Ustavini tasdiqlash; 2) Bankni qayta tashkil etish, shu jumladan har qanday qo’shib yuborish, qo’shilish, bo’lish, ajratish va qayta tuzish; 3) Bank ustidan nazoratni o’zgartirishga olib keladigan har qanday qo’shib yuborish, qayta tuzish yoki har qanday korporativ bitimlar turlari (Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining 50 (ellik) foiz yoki undan ko’piga bevosita yoki bilvosita egalik qilishning o’zgarishiga olib keluvchi yzgonalar bitim yoki bir qator o’zaro bog’langan bitimlar);</p>

<p>процентами или более голосующих акций Банка);</p> <p>4) какое-либо ликвидационное событие, включая ликвидацию Банка, назначение ликвидатора и утверждение промежуточной и финальной ликвидационной финансовой отчетности;</p> <p>5) утверждение приоритетных стратегических направлений развития Банка и его Бизнес-план на первый год деятельности. Обсуждение последующих Стратегии и Бизнес-плана Банка, утвержденных Советом.</p> <p>6) какое-либо существенное изменение в характере или сфере деятельности Банка;</p> <p>7) определение предельного размера объявленных Акции Банка;</p> <p>8) увеличение уставного капитала Банка путем размещения дополнительных акций Банка;</p> <p>9) уменьшение уставного капитала Банка;</p> <p>10) принятие решения о выпуске корпоративных облигаций, в том числе конвертируемых в акции, выпуске производных ценных бумаг и выкупе корпоративных облигаций Банка;</p> <p>11) консолидация, дробление или конвертация акций Банка;</p> <p>12) листинг, размещение или де-листинг котировок каких-либо акций Банка на международных фондовых рынках;</p> <p>13) принятие решения о неприменении преимущественного права акционера на приобретение акций Банка и ценных бумаг, конвертируемых в акции Банка, предусмотренного законодательством;</p> <p>14) утверждение регламентов Общего Собрания Акционеров, Совета и Ревизионной комиссии;</p> <p>15) определение количественного состава Совета Банка, какое-либо изменение в количестве членов Совета, избрание его членов и досрочное прекращение их полномочий;</p> <p>16) определение количественного состава Комитета Миноритарных Акционеров Банка, какое-либо изменение в количестве членов Комитета Миноритарных Акционеров, избрание его членов и досрочное прекращение их полномочий;</p> <p>17) избрание членов Ревизионной комиссии Банка и досрочное прекращение их полномочий;</p> <p>18) утверждение организационной структуры Банка;</p> <p>19) утверждение назначенного Советом Банка Председателя Правления Банка и досрочное прекращение его полномочий;</p>	<p>4) har qanday tugatish hodisasi, shu jumladan Bankni tugatish, tugatuvchini tayinlash va oraliq va yakuniy tugatish moliyaviy hisobotini tasdiqlash;</p> <p>5) Bankning birinchi yildagi faoliyati uchun uni rivojlantirishning ustuvor strategik yo'nalishlarini va Biznes-rejasini tasdiqlash. Bankning Kengash tomonidan tasdiqlangan keyingi strategiyasi va biznes-rejasini muhokama qilish.</p> <p>6) Bank faoliyatining xususiyati yoki sohasidagi har qanday jiddiy o'zgarish;</p> <p>7) E'lon qilingan Bank Aksiyalarining eng yuqori miqdorini belgilash;</p> <p>8) Bankning qo'shimcha aksiyalarini joylashtirish orqali Bankning ustav kapitalini ko'paytirish;</p> <p>9) Bank ustav kapitalini kamaytirish;</p> <p>10) korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalarni chiqarish, qimmatli qog'ozlar hosilalarini chiqarilish va Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>11) Bank aksiyalarini birlashtirish (konsolidatsiya qilish), bo'lish yoki konvertatsiya qilish;</p> <p>12) xalqaro fond bozorlarida Bankning har qanday aksiyalari kotirovkalari listingi, joylashtirilishi yoki de-listingi;</p> <p>13) qonunda nazarda tutilgan tartibda aksiyadorlarning Bank aksiyalarini va Bank aksiyalariga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha imtiyozli huquqi qo'llanilmasligi to'g'risida qaror qabul qilish;</p> <p>14) Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishi, Kengash va Taftish komissiyasining reglamentlarini tasdiqlash;</p> <p>15) Bank Kengashining miqdoriy tarkibini belgilash, Kengash a'zolari sonini har qanday o'zgartirish, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;</p> <p>16) Bank Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolari sonini belgilash, Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolari sonini har qanday o'zgartirish, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;</p> <p>17) Bankning Taftish komissiyasi a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;</p> <p>18) Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;</p> <p>19) Bank Kengashi tomonidan tayinlangan Bank Boshqaruvi Raisini tasdiqlash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;</p>
---	--

<p>20) утверждение порядка распределения нераспределенной прибыли и убытков прошлых лет, создание фондов за счет прибыли Банка, утверждение размера дивиденда по всем типам акций Банка и порядка выплаты дивидендов, в том числе объявление или выплата каких-либо акций, несоответствующие требованиям Устава или дивидендной политики Банка;</p> <p>21) установление вознаграждений и компенсаций членам Совета Банка и членам Ревизионной комиссии Банка;</p> <p>22) заслушивание отчетов Совета Банка и заключений Ревизионной комиссии Банка по вопросам, входящим в их компетенцию, в том числе по соблюдению установленных законодательством требований по управлению Банком;</p> <p>23) заключение Банком какого-либо договора или соглашения с аффилированным лицом в соответствии со статьей 88 Закона Республики Узбекистан «об Акционерных обществах и защите прав акционеров»;</p> <p>24) совершение крупных сделок, связанных с приобретением и отчуждением Банком активов, стоимость которых составляет свыше 50% (пятидесяти процентов) стоимости чистых активов Банка по данным бухгалтерского учета на дату принятия решения о совершении такой сделки;</p> <p>25) создание, снятие или выкуп какого-либо обременения (какого-либо залога, залога собственности, залога, уступки и права удержания собственности) по целой или какой-либо значительной части обязательств, активов или имущества Банка, за исключением, совершаемых в процессе обычной банковской деятельности, в размере, превышающем 10% (десять процентов) от размера совокупных активов Банка;</p> <p>26) вступление в какое-либо обязательство или принятие какой-либо задолженности, за исключением совершаемых в процессе обычной банковской деятельности Банка, в размере, превышающем 10% (десять процентов) от совокупных активов Банка в ходе одной или нескольких взаимосвязанных сделок;</p> <p>27) В случае, если единогласие Совета Банка по вопросу совершения крупной сделки не достигнуто, по решению Совета Банка вопрос о совершении крупной сделки может быть вынесен на решение Общего Собрания Акционеров;</p>	<p>20) o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foyda va zararlarni taqsimlash tartibini tasdiqlash, Bank foydasi hisobiga jamg'armalar yaratish, Bank aksiyalarining barcha turlari bo'yicha dividendlar miqdorini va dividendlarni to'lash tartibini tasdiqlash, shu jumladan, Bankning Ustavi yoki dividend siyosati talablariga javob bermaydigan har qanday aksiyalarni e'lon qilish yoki to'lash;</p> <p>21) Bank Kengashi a'zolari va Bankning Taftish komissiyasi a'zolariga mukofot pullari va kompensatsiyalarni belgilash;</p> <p>22) Bank Kengashining hisobotlarini va Bank Taftish komissiyasining o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha xulosalarini, shu jumladan Bankni boshqarish bo'yicha qonunda belgilangan talablarga rioya qilinishini tinglash;</p> <p>23) Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonunining 88-moddasiga muvofiq affillangan shaxs bilan har qanday shartnoma yoki bitim tuzish;</p> <p>24) Bank tomonidan buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga ko'ra qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan sanada bank sof aktivlari miqdorining 50% (ellik foizidan) ortig'ini tashkil etuvchi sof aktivlarni sotib olish va boshqalarga o'tkazish bilan bog'liq yirik bitimlarni amalga oshirish;</p> <p>25) Bank jami aktivlari miqdorining 10 foizidan (o'n foizidan) ortiq miqdordagi Bank majburiyatlari, aktivlari yoki mol-mulkinging to'liq yoki biron bir muhim qismi bo'yicha birorta taqiqni (birorta garov, mol-mulk garovi, ipoteka, boshqa shaxsga topshirish va mol-mulkn o'zida saqlab qolish huquqi) yaratish, bekor qilish yoki qaytarib sotib olish, bank faoliyatining odatiy jarayonida amalga oshiriladirlanlari bundan mustasno;</p> <p>26) bir yoki bir necha o'zaro bog'langan bitimlar jarayonida Bank jami aktivlarining 10 foizidan (o'n foizidan) ortiq miqdordagi biron bir majburiyatni olish yoki qarzdorlikni qabul qilish, Bankning odatdagi bank faoliyati davomida sodir etiladigan bitimlar bundan mustasno;</p> <p>27) Yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Bank Kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda, yirik bitim tuzish to'g'risiadgi masala Bank Kengashining qaroriga ko'ra Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishi qaroriga havola qilinishi mumkin;</p>
--	---



28) В соответствии с Кодексом корпоративного управления Республики Узбекистан, утверждение Положения об урегулировании конфликта интересов и других необходимых процедур;

29) Определение мер ответственности в отношении должностных лиц Банка за несоблюдение рекомендаций Кодекса корпоративного управления или за неопубликование информации, предусмотренной Кодексом корпоративного управления;

30) решение иных вопросов, предусмотренных законодательством и Уставом Банка;

31) принятие решений о выдаче кредитов в соответствии с кредитными и другими политиками Банка на сумму, превышающую 300,000 (триста тысяч) долларов США по одной или нескольким взаимосвязанным сделкам;

32) в пределах своих полномочий принятие решения о продлении срока действия любого кредита и иных активов, включая решения об окончательном списании кредита с внебалансовых счетов в соответствии с кредитной и другими политиками Банка, на сумму превышающую 300,000 (триста тысяч) долларов США по одной или нескольким взаимосвязанным сделкам;

33) определение типа выпускаемых акций, а также их количества;

34) Принятие решения о выкупе Банком собственных акций;

35) распределение прибыли и убытков Банка текущего периода;

36) дробление и консолидация акций;

37) принятие решения о включении или увеличении доли государства в уставном капитале Банка вследствие образования налоговой или иной задолженности перед бюджетом;

38) определение количественного и личностного состава Счетной комиссии;

39) инициирование проверок финансовой и экономической деятельности Банка;

40) определение способа размещения акций и ценных бумаг, а также конвертируемых акций;

41) принятие решений о выплате, размере, форме и порядке выплаты дивидендов, а также принятие решений о невыплате дивидендов по акциям определенных типов;

42) принятие решений о сохранении невостребованных владельцами дивидендов в

28) O'zbekiston Respublikasining Korporativ boshqaruv kodeksiga muvofiq, Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish to'g'risidagi nizomni va boshqa zarur tartiblarni tasdiqlash;

29) Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalarini bajarmaganligi yoki Korporativ boshqaruv kodeksida nazarda tutilgan ma'lumotlarning nashr etilmaganligi uchun Bankning mansabdor shaxslariga nisbatan javobgarlik choralari belgilash;

30) qonun hujjatlarida va Bank Ustavida nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qilish;

31) Bankning kredit va boshqa siyosatiga muvofiq bir yoki bir necha o'zaro bog'langan bitimlar bo'yicha 300 000 (uch yuz ming) AQSh dollaridan oshadigan miqdorda kreditlar berish to'g'risida qaror qabul qilish.

32) o'z vakolatlari doirasida har qanday kredit va boshqa aktivlarning amal qilish muddatini uzaytirish, shu jumladan Bank kredit va boshqa siyosatlariga muvofiq balansdan tashqari hisobvarag'idan bir yoki bir necha o'zaro bo'lgan bitimlar bo'yicha 300,000 (uch yuz ming) AQSh dollaridan oshadigan miqdordagi kreditni uzil-kesil hisobdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish.

33) chiqariladigan aksiyalar turini, shuningdek ularning sonini belgilash;

34) Bank tomonidan o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

35) Bankning joriy davrdagi foydasi va zararini taqsimlash;

36) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

37) soliq qarzdorligi yoki byudjetga boshqa qarzdorlik paydo bo'lishi natijasida Bankning ustav kapitaliga davlat ulushini qo'shish yoki undagi ulushini oshirish to'g'risida qaror qabul qilish;

38) Sanoq komissiyasining miqdoriy va shaxsiy tarkibini belgilash;

39) Bankning moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvlarini boshlash;

40) aksiyalar va qimmatli qog'ozlar, shuningdek ayirboshlanadigan aksiyalarni joylashtirish usulini belgilash;

41) dividendlarni to'lash, ularning miqdori, shakli va to'lash tartibi to'g'risida qarorlar qabul qilish, shuningdek aksiyalarning ayrim turlari bo'yicha dividendlarni to'lamaslik to'g'risida qarorlar qabul qilish;

42) egalari talab qilmagan dividendlarni Bank ixtiyorida saqlash to'g'risida qaror qabul qilish;

43) Bank Ustaviga Bankning e'lon qilingan aksiyalariga

<p>распоряжении Банка; 43) внесение изменений, относящихся к объявленным акциям Банка, в Устав Банка; 44) заслушивание отчетов Совета Банка и заключений Ревизионной комиссии Банка по вопросам, входящим в их компетенцию, в том числе по соблюдению установленных законодательством требований по управлению Банком; 45) принятие решений о выпуске Банком корпоративных облигаций, конвертируемых в акции; 46) принятие решений о выкупе корпоративных облигаций Банка; 47) определение цены размещения (выставления на биржевой и организованный внебиржевой рынок ценных бумаг) акций;</p>	<p>taalluqli o'zgartirishlarni kiritish; 44) Bank Kengashining hisobotlarini va Bank Taftish komissiyasining ularning vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha, shu jumladan Bankni boshqarish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilish bo'yicha xulosalarini tinglash; 45) Bank tomonidan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish; 46) Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish; 47) aksiyalarni joylashtirish (birjada va uyushgan birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida taklif etish) bahosini aniqlash;</p>
<p>9. Вопросы, отнесённые к исключительной компетенции Общего Собрания Акционеров, не могут быть переданы на решение Совету и Правлению Банка.</p>	<p>9. Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishining mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalar hal kilinishi uchun Bank Kengashi va Boshqaruviga berilishi mumkin emas.</p>
<p><b>III. ПРАВО НА УЧАСТИЕ В ОБЩЕМ СОБРАНИИ АКЦИОНЕРОВ. РЕГИСТРАЦИЯ АКЦИОНЕРОВ И ИХ ПОЛНОМОЧНЫХ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ</b></p>	<p><b>II. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHIDA ISHTIROK ETISH HUQUQLI. AKSIYADORLAR VA ULARNING VAKOLATLI VAKILLARINI RO'YXATDAN O'TKAZISH</b></p>
<p>10. Право участия на Общем собрании акционеров имеют акционеры, зафиксированные в реестре акционеров Банка, сформированном за три рабочих дня до даты проведения Общего собрания акционеров.</p>	<p>10. Aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlar Umumiy Yig'ilishini o'tkazish sanasidan uch ish kuni oldin tuzilgan Bank aksiyadorlari reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladilar.</p>
<p>11. По требованию акционера Банк обязан представить ему информацию о включении его в реестр акционеров, сформированный для проведения Общего собрания акционеров.</p>	<p>11. Bank aksiyadorning talabi bo'yicha unga aksiyadorlar Umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun tuzilgan aksiyadorlar reyestriga kiritilganligi to'g'risida axborotni taqdim etishi shart.</p>
<p>12. Изменения в сформированный реестр акционеров Банка могут вноситься только в случае восстановления нарушенных прав лиц, не включенных в указанный реестр на дату его формирования составления, или исправления ошибок, допущенных при его формировании составления, в порядке, установленном законодательством.</p>	<p>12. Bank aksiyadorlarining tuzilgan reyestriga o'zgartirishlar u tuzilgan sanada maskur reyestriga kiritilmagan shaxlarning buzilgan huquqlari tiklangan yoki uni tuzish vaqtida yo'l qo'yilgan xatolar tuzatilgan taqdirdagina qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda kiritilishi mumkin.</p>
<p>13. На Общем собрании акционеров имеют право присутствовать акционеры, зафиксированные в</p>	<p>13. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishida Bank aksiyadorlari reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ishtirok etish huquqiga</p>

<p>реестре акционеров Банка, их полномочные представители, счетная комиссия, работники службы внутреннего аудита, представитель аудиторской организации, которая проводила аудиторскую проверку, члены Совета Банка, члены Ревизионной комиссии, а также представитель комитета миноритарных акционеров (при наличии) и др., по приглашению Председательствующего на Общем собрании акционеров, члены Совета Банка, Правления и Ревизионной комиссии.</p>	<p>egalар, ularning vakolatli vakillari, sanoq komissiyasi, ichki audit xizmati xodimlari, auditorlik tekshiruvini o'tkazgan auditorlik tashkilotining vakili, Bank Kengashi a'zolari, Taftish komissiyasi a'zolari, shuningdek minoritar aksiyadorlar qo'mitasi (agar mavjud bo'lsa) vakili va boshqalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi Raisi taklifiga binoan, Bank Kengashi, Boshqaruvi, Taftish komissiyasi a'zolari ishtirok etish huquqiga egadirlar.</p>
<p>14. Кандидаты в члены Совета Банка, Ревизионной комиссии и на должность Председателя Правления Банка могут присутствовать на Общем собрании акционеров при рассмотрении своих кандидатур.</p>	<p>14. Bank Kengashi, Taftish komissiyasi a'zolariga va Bank Boshqaruvi raisi lavozimiga nomzodlar o'z nomzodlarini ko'rib chiqishda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etishlari mumkin.</p>
<p>15. Члены Совета Банка, представители Ревизионной комиссии, а также представители аудиторской организации должны лично принимать участие на годовом Общем собрании акционеров с отчетами своих органов.</p>	<p>15. Bank Kengashi a'zolari, Taftish komissiyasi vakillari, shuningdek auditorlik tashkiloti vakillari Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida o'z organlari hisobotlari bilan shaxsan ishtirok etishlari kerak.</p>
<p>16. Для участия на Общем собрании акционеры или их полномочные представители должны пройти регистрацию по месту и времени, указанному в уведомлении о проведении собрания.</p>	<p>16. Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakolatli vakillari yig'ilish o'tkazilishi to'g'risidagi bildirish xatida qayd etilgan joyda va vaqtda ro'yxatdan o'tishlari kerak.</p>
<p>17. Представитель акционера на Общем собрании акционеров действует на основании доверенности, составленной в письменной форме. Доверенность на голосование должна содержать сведения о представляемом и представителе (имя или наименование, место жительства или место нахождения, паспортные данные). Доверенность на голосование от имени физического лица должна быть удостоверена нотариально. Доверенность на голосование от имени юридического лица выдается за подписью его руководителя и заверяется печатью этого юридического лица (при наличии печати).</p>	<p>17. Aksiyadorning vakili Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida harakat qiladi. Ovoz berish uchun ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (ism-sharifi yoki nomi, turar-joy manzili yoki joylashgan manzili, pasport ma'lumotlari) bo'lishi kerak. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial tarzda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma uning rahbari imzosi ostida beriladi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlanadi (muhir mavjud bo'lgan holatda).</p>
<p>18. Акционер вправе в любое время заменить своего представителя на Общем собрании акционеров или лично принять участие в нем.</p>	<p>18. Aksiyador istalgan vaqtda Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishida o'z vakilini almashtirish yoki ushbu yig'ilishda shaxsan ishtirok etish huquqiga ega.</p>
<p>19. Регистрация акционеров, физических лиц, прибывших для участия в Общем собрании, осуществляется при предъявлении паспорта или иного документа, удостоверяющего личность акционера, а в отношении представителя — также доверенности, заверенной нотариально.</p>	<p>19. Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun kelgan aksiyadorlar, jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish pasport yoki aksiyadorning shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat, taqdim qilinganda amalga oshiriladi, vakilga nisbatan esa - shuningdek notarial tarzda tasdiqlangan ishonchnoma ham taqdim etilishi kerak.</p>
<p>20. Руководитель юридического лица — акционера Банка осуществляет свои полномочия на Общем собрании по должности на основании правового акта о назначении его на должность и документа,</p>	<p>20. Bank aksiyadori - yuridik shaxsning rahbari Umumiy yig'ilishda o'z vakolatlarini uni lavozimiga tayinlash to'g'risidagi huquqiy hujjat va shaxsni tasdiqlovchi hujjat asosida lavozimi bo'yicha amalga oshiradi.</p>

удостоверяющего личность.	
21. Представитель акционера — юридического лица может участвовать в Общем собрании акционеров при наличии доверенности на его имя, выданной за подписью руководителя организации или иного лица, уполномоченного на это его учредительными документами, заверенной печатью этой организации (при наличии печати).	21. Yuridik shaxs bo'lgan aksiyadorning vakili uning nomiga tashkilot rahbari yoki uning ta'sis hujjatlari bilan vakolat berilgan boshqa shaxs tomonidan imzolangan, ushbu tashkilotning muhri bilan tasdiqlangan (muhr mavjud bo'lgan holatda) ishonchnoma mavjud bo'lganda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etishi mumkin.
22. В случае, если акция Банка находится в Общей долевой собственности нескольких лиц, то правомочия по голосованию на Общем собрании акционеров осуществляются по их усмотрению одним из участников Общей долевой собственности либо их общим представителем. Полномочия каждого из указанных лиц должны быть надлежащим образом оформлены.	22. Bank aksiyasi bir necha shaxsning Umumiy hissa egaligida bo'lgan holatda, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqi ularning ixtiyoriga ko'ra umumiy hissa egaligi ishtirokchilaridan biri yohud ularning umumiy vakili tomonidan amalga oshiradi. Qayd etilgan shaxslarning har birining vakolatlari tegishli ravishda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.
23. Номинальный держатель участвует на Общем собрании акционеров в соответствии с договором, заключенным с лицом, по поручению которого он держит акции.	23. Aksiyalarning nominal egasi aksiyalari nomidan ushlab turilgan shaxs bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etadi.
24. В соответствии с реестром акционеров Банка, сформированным для проведения Общего собрания акционеров, составляется регистрационный список.	24 Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun tuzilgan Bank aksiyadorlari reyestriga muvofiq quyidagi ro'yxati tuziladi.
25. Регистрационный список должен быть сброшюрован, пронумерован, прошит и скреплен печатью Банка.	25. Qayd etish ro'yxati juzlangan (broshyuralanan), raqamlangan, tikilgan va Bank muhri bilan muhrlangan bo'lishi kerak.
26. При проведении Общего собрания акционеры (их представители) расписываются в регистрационном списке и получают комплект бюллетеней для голосования исходя из количества голосующих акций каждого акционера, определенного по данным реестра акционеров Банка.	26. Umumiy yig'ilishni o'tkazishda aksiyadorlar (ularning vakillari) qayd etish ro'yxatiga imzo qo'yadilar va har bir aksiyadorning Bank aksiyadorlari reyestri ma'lumotlariga ko'ra aniqlangan ovoz beruvchi aksiyalari sonidan kelib chiqqan holda ovoz berish byulletenlar to'plamini oladilar.
27. Если участник собрания предъявляет доверенность на представление интересов одного или нескольких акционеров, ему выдаются бюллетени для голосования представляемого акционера (акционеров), а в регистрационном списке напротив фамилии представляемого акционера делается пометка: «по доверенности № ___ от «___» по _____ (кол-во) голосующим акциям» и указывается фамилия, имя, отчество представителя.	27. Agar yig'ilish ishtirokchisi bir yoki bir necha aksiyadorlar manfaatlarini ifodalash uchun ishonchnoma taqdim qilsa, unga aksiyador (aksiyadorlar) nomidan ovoz berish byulletenlari beriladi va qayd etish ro'yxatida esa manfaatlari ifoda etilayotgan aksiyador familiyasi qarshisida quyidagicha eslatma qilinadi: "___" (miqdori) ovoz beruvchi aksiyalar bo'yicha _____ dagi ___-son ishonchnomaga ko'ra va vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.
<b>IV. ПОДГОТОВКА К ПРОВЕДЕНИЮ ГОДОВОГО ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ</b>	<b>IV. AKSIYADORLAR YILLIK UMUMIY YIG'ILISHINI O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO'RISH</b>
28. Для качественной подготовки и проведения Общего собрания акционеров в срок, установленный	28. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini mazkur Nizomning III qismida belgilangan muddatda sifatli tayyorlash va o'tkazish



<p>в разделе III настоящего Положения Совет Банка совместно с корпоративным консультантом (при наличии) осуществляет следующее: Подготовку к проведению Общего собрания акционеров проводит Совет Банка, который определяет:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- заключает договора с аудиторскими организациями, выбранными решением Совета Банка по проведению аудиторской проверки, в том числе составлению финансовой отчетности в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности, внешнего аудита в соответствии с Международными стандартами аудита с указанием в договоре конкретных сроков завершения проверки;</li><li>- обеспечивает публикацию ежегодной финансовой отчетности, составленную в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности, после проведения ее внешнего аудита в соответствии с Международными стандартами аудита не позднее, чем за две недели до даты проведения годового Общего собрания.</li></ul>	<p>uchun Bank Kengashi korporativ maslahatchi (agar mavjud bo'lsa) bilan birgalikda quyidagilarni amalga oshiradi: Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlikni Bank Kengashi amalga oshiradi, u quyidagilarni belgilaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- Bank Kengashining qarori bilan tanlangan auditorlik tashkilotlari bilan auditorlik tekshiruvini o'tkazish, shu jumladan moliyaviy hisobotni Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tayyorlash, Xalqaro auditorlik standartlariga muvofiq tashqi auditni o'tkazish bo'yicha shartnomalar tuzadi, ushbu shartnomada tekshiruv yakunlanishining aniq muddatlari ko'rsatiladi;</li><li>- Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi audit o'tkazilgandan so'ng, yillik umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sanagacha ikki haftadan kechikitrilmay Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan har yilgi moliyaviy hisobot e'lon qilinishini ta'minlaydi.</li></ul>
<p>29. Совет Банка также разрабатывает (подготавливает):</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- проекты регламента проведения Общего собрания акционеров, распределения чистой прибыли (покрытия убыток) с приложением обоснования по каждому направлению и других документов подлежащих рассмотрению Общим собранием акционеров, а также предложения по созданию счетной комиссии. Обобщает поступившие со стороны акционеров предложения для внесения в повестку дня годового Общего собрания акционеров, в том числе информацию о выдвинутых кандидатах в Совет Банка и Ревизионную комиссию (ревизоры) Банка и др.;</li><li>- годовой отчет и годовой бизнес-план Банка, а также проект стратегии развития Банка на среднесрочный и долгосрочный период, с определением ее конкретных сроков исходя из основных направлений и целей деятельности Банка;</li><li>- отчет Правления Банка о выполнении параметров бизнес - плана и о принимаемых мерах по достижению стратегии развития Банка, проведение конкурса по отбору аудиторской организации для проведения аудиторской проверки и др.</li></ul>	<p>29. Bank Kengashi quyidagilarni ham ishlab chiqadi (tayyorlaydi):</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish tartibi (reglamenti), har bir yo'nalish bo'yicha asoslar ilova qilingan holda sof foyda taqsimlanishi (zarar o'rni qoplanishi) va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan boshqa hujjatlar loyihalarini, shuningdek sanoq komissiyasini tashkil qilish bo'yicha takliflar. Aksiyadorlar yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish uchun aksiyadorlardan kelib tushgan takliflarni, shu jumladan Bank Kengashi va Bank Taftish komissiyasiga (taftishchi sifatida) ko'rsatilgan nomzodlar to'g'risidagi axborotni va boshqa ma'lumotlarni umumlashtiradi;</li><li>- Bankning yillik hisoboti va yillik biznes-rejasi, shuningdek, Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadlaridan kelib chiqib, uning muayyan muddatlari aniqlangan holda, Bankni o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasining loyihasi;</li><li>- biznes-reja ko'rsatkichlarinng bajarilishi va Bankning rivojlanish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilyotgan choralar to'g'risida Bank Boshqaruvining hisoboti, auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash bo'yicha tanlov o'tkazish va h.k.</li></ul>
<p>30. Правление Банка после разработки (подготовки) материалов, указанных в пункте 27 настоящего Положения вносит их на рассмотрение Совету Банка.</p>	<p>30. Bank Boshqaruvi ushbu Nozomning 27-bandida qayd etilgan materiallar ishlab chiqilqandan (tayyorlangandan) so'ng ularni Bank Kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritadi.</p>

<p>31. Подготовку к проведению Общего собрания акционеров проводит Совет Банка, который определяет:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- дату, место и время проведения Общего собрания акционеров;</li><li>- повестку дня Общего собрания акционеров;</li><li>- дату формирования реестра акционеров Банка для проведения Общего собрания акционеров;</li><li>- порядок сообщения акционерам о проведении Общего собрания акционеров;</li><li>- перечень информации (материалов), предоставляемой акционерам при подготовке к проведению Общего собрания акционеров;</li><li>- форму и текст бюллетеня для голосования.</li></ul>	<p>31. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik Bank Kengashi tomonidan amalga oshiriladi, jumladan u quyidagilarni belgilaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, joy va vaqt;</li><li>- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibi;</li><li>- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun Bank aksiyadorlarining reyestri tuziladigan sana;</li><li>- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida aksiyadorlarni xabardor qilish tartibi;</li><li>- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda aksiyadorlarga taqdim etiladigan axborot (materiallar) ro'yxati;</li><li>- ovoz berish byulleteni shakli va matni.</li></ul>
<p>32. Дата проведения Общего собрания акционеров не может быть установлена менее чем за 10 и более чем за 30 дней со дня принятия решения о его проведении.</p>	<p>32. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana ushbu yig'ilish o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab 10 kundan oldin va 30 kundan keyin belgilanishi mumkin emas.</p>
<p>33. Сообщение о проведении Общего собрания акционеров публикуется на Едином портале корпоративной информации, официальном веб-сайте Банка, в средствах массовой информации, а также направляется акционерам по электронной почте не позднее, чем за 21 день, но не ранее чем за 30 дней до даты проведения Общего собрания акционеров.</p>	<p>33. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 21 kundan kechiktirmay, lekin uzog'I bilan 30 kun oldin Korporativ axborot yagona portalida, Bankning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.</p>
<p>34. Сообщение о проведении Общего собрания акционеров должно содержать:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- наименование, местонахождение (почтовый адрес) и адрес электронной почты Банка;</li><li>- дату, время и место проведения Общего собрания акционеров;</li><li>- дату формирования реестра акционеров Банка;</li><li>- вопросы, включенные в повестку дня Общего собрания акционеров;</li><li>- порядок ознакомления акционеров с информацией (материалами), подлежащей предоставлению акционерам при подготовке к проведению Общего собрания акционеров.</li></ul>	<p>34. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak.</p> <ul style="list-style-type: none"><li>- Bankning nomi, joylashgan manzili (pochta manzili) va elektron pochta manzili;</li><li>- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;</li><li>- Bank aksiyadorlarining reyestri tuziladigan sana;</li><li>- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritilgan masalalar;</li><li>- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi.</li></ul>
<p>35. К информации (материалам), подлежащей предоставлению акционерам при подготовке к проведению Общего собрания акционеров, относятся годовой отчет Банка, заключение Ревизионной комиссии Банка и аудиторской организации по результатам проверки годовой финансово-</p>	<p>35. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) Bankning yillik hisobotini, Bankning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha Bankning Taftish komissiyasi va auditorlik tashkilotining</p>

<p>хозяйственной деятельности Банка, заключение Совета Банка о возможности продления срока, перезаключения или прекращения договора с Председателем Правления, а также сведения о кандидатах в члены Совета Банка и Ревизионной комиссии Банка, проект изменений и дополнений, вносимых в Устав Банка, или проект Устава Банка в новой редакции, а также стратегия развития Банка на среднесрочный и долгосрочный период и иная необходимая информация по повестке дня, в том числе позиция Совета относительно повестки дня Общего собрания.</p>	<p>xulosalarini, Boshqaruv Raisi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish imkoniyati to'g'risida Bank Kengashining xulosasini, shuningdek Bank Kengashi va Bank Taftish komissiyasi a'zoligiga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, Bank Ustaviga kiritiladigan o'zgartirishlar va qo'shimchalar loyihasini yoki Bank Ustavining yangi tahrirdagi loyihasini, shuningdek Bankning o'rta muddatli va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini hamda kun tartibi bo'yicha boshqa kerakli ma'lumotlarni, shu jumladan Kengashning Umumiy yig'ilish kun tartibi yuzasidan nuqtai nazarini o'z ichiga oladi.</p>
<p>36. Перечень дополнительной информации (материалов), обязательной для предоставления акционерам при подготовке к проведению Общего собрания акционеров, может быть установлен уполномоченным государственным органом по регулированию рынка ценных бумаг.</p>	<p>36. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi majburiy bo'lgan qo'shimcha axborot (materiallar) ro'yxati qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin.</p>
<p>37. Акционеры (акционер), являющиеся в совокупности владельцами не менее чем одного процента голосующих акций Банка, в срок не позднее тридцати дней после окончания финансового года Банка, вправе внести вопросы в повестку дня годового Общего собрания акционеров и выдвинуть кандидатов в Совет Банка и Ревизионную комиссию Банка, число которых не может превышать количественного состава этого органа.</p>	<p>37. Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining jami eng kamida bir foizi egasi hisoblangan aksiyadorlar (aksiyador) Bankning moliya yili yakunlangandan so'ng o'ttiz kundan kechiktirilmagam muddatda Aksiyadorlar yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritish va Bank Kengashi va Bank Taftish komissiyasiga soni ushbu organing miqdoriy tarkibidan oshib ketmaydigan nomzodlarni ko'rsatish huquqiga ega.</p>
<p>38. Вопрос в повестку дня Общего собрания акционеров вносится в письменной форме с указанием мотивов его постановки, имени акционера (акционеров), вносящего вопрос, количества и типа принадлежащих ему акций.</p>	<p>38. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala, uni qo'yish sabablari, uni kiritayotgan aksiyador (aksiyadorlar) ismi-sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalar soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.</p>
<p>39. При внесении предложений о выдвижении кандидатов в Совет Банка и Ревизионную комиссию Банка, в том числе в случае самовыдвижения, указываются имя кандидата, количество и тип принадлежащих ему акций (в случае, если кандидат является акционером Банка), а также имена (наименования) акционеров, выдвигающих кандидата, количество и тип принадлежащих им акций.</p>	<p>39. Bank Kengashi va Bank Taftish komissiyasi tarkibiga nomzodlarni ko'rsatish to'g'risida takliflar kiritishda, shu jumladan mustaqil ravishda o'z nomzodi ko'rsatilgan holatda, nomzodning ismi-sharifi, unga tegishli aksiyalar soni va turi (agar nomzod Bank aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodni ko'rsatuvchi aksiyadorlar ismi-sharifi (nomlari), ularga tegishli aksiyalar soni va turi ko'rsatiladi.</p>
<p>40. Совет Банка обязан рассмотреть поступившие предложения и принять решение о включении их в повестку дня Общего собрания акционеров или об отказе во включении в указанную повестку дня не позднее 10 дней после окончания срока,</p>	<p>40. Bank Kengashi kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqishi va ularni Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish to'g'risida yoki ushbu kun tartibiga kiritilishini rad etish to'g'risida mazkur Nizomning 29-bandida belgilangan muddat tugagandan so'ng 10 kundan kechiktirmay qaror qabul qilishi</p>

установленного в п. 29 настоящего Положения.	shart.
<p>41. Вопрос, внесенный акционером (акционерами), подлежит включению в повестку дня Общего собрания акционеров равно как выдвинутые кандидаты подлежат включению в список кандидатур для голосования по выборам в Совет Банка и Ревизионную комиссию Банка, за исключением случаев, когда:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- акционером (акционерами) не соблюден срок, установленный в пункте 36 настоящего положения;</li> <li>- акционер (акционеры) не является владельцем количества голосующих акций Банка, предусмотренного в пункте 36 настоящего Положения;</li> <li>- если данные о кандидатурах в выборные органы Банка являются неполными;</li> <li>- предложения не соответствуют требованиям актов законодательства.</li> </ul>	<p>41. Aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan kiritilgan masala Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishi kerak, xuddi shunday ko'rsatilgan nomzodlar Bank Kengashiga va Bank Taftish komissiyasiga saylovlar bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi holatlar bundan mustasno:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan mazkur Nizomning 36-bandida belgilangan muddatga roiya qilinmagan;</li> <li>- aksiyador (aksiyadorlar) mazkur Nizomning 36-bandida nazarda tutilgan Bankning ovoz beruvchi aksiyalari soni egasi hisoblanmaydi;</li> <li>- agar Bankning saylanadigan organlariga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;</li> <li>- takliflar qonun hujjatlari talablariga javob bermaydi.</li> </ul>
<p>42. Акционеры (акционер) вправе внести изменения в список выдвинутых ими кандидатов в Совет Банка и Ревизионную комиссию Банка не позднее трех рабочих дней с даты опубликования сообщения о проведении годового Общего собрания акционеров.</p>	<p>42. Aksiyadorlar (aksiyador) o'zlari tomonidan Bank Kengashi va Bank Taftish komissiyasiga ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxatiga Aksiyadorlar yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida xabar e'lon qilingan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.</p>
<p>43. Решение Совета Банка о включении или мотивированном отказе во включении вопроса в повестку дня Общего собрания акционеров или кандидата в список кандидатур для голосования по выборам в Совет Банка и Ревизионную комиссию Банка направляется акционеру (акционерам), внесшему вопрос или представившему предложение, не позднее трех рабочих дней с даты его принятия.</p>	<p>43. Masalaning Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishi yoki nomzodning Bank Kengashiga va Bank Taftish komissiyasiga saylovlar bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi to'g'risida yoki qayd etilgan kun tartibiga yoki nomzodlar ro'yxatiga kiritish asoslangan tarzda rad etilishi to'g'risida Bank Kengashining qarori masalani kun tartibiga kiritish yoki nomzodlarni nomzodlar ro'yxatiga kiritishni taklif qilgan aksiyador (aksiyadorlar)ga qaror qabul qilingan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.</p>
<p>44. Решение Совета Банка об отказе во включении вопроса в повестку дня Общего собрания акционеров или кандидата в список кандидатур для голосования по выборам в Совет Банка и Ревизионную комиссию Банка может быть обжаловано в суд.</p>	<p>44. Masalaning Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilishi yoki nomzodning Bank Kengashiga va Bank Taftish komissiyasiga saylovlar bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishini rad etish to'g'risida Bank Kengashining qarori ustidan sudga shikoyat arizasi berilishi mumkin.</p>
<p><b>V. ПОДГОТОВКА К ПРОВЕДЕНИЮ ВНЕОЧЕРЕДНОГО ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ</b></p>	<p><b>V. AKSIYADORLARNING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHINI O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO'RISH</b></p>
<p>45. Внеочередное Общее собрание акционеров проводится по решению Совета Банка на основании:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- его собственной инициативы;</li> </ul>	<p>45. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Bank Kengashining quyidagilar asosidagi qarori bo'yicha o'tkaziladi:</p>



<p>- требования ревизионной комиссии;</p> <p>- требования акционера (акционеров), являющегося владельцем не менее чем 5% голосующих акций Банка на дату предъявления требования.</p>	<p>- uning o'z tashabbusi bo'yicha;</p> <p>- taftish komissiyasining talabiga ko'ra;</p> <p>- talabnoma taqdim qilingan sanada Bank ovoz beruvchi aksiyalarining eng kamida 5 foizi egasi hisoblangan aksiyador (aksiyadorlar) talablariga ko'ra.</p>
<p>46. Мотивами требований о проведении внеочередного Общего собрания акционеров по вопросам досрочного прекращения полномочий Совета Банка являются:</p> <p>- несоблюдение законодательства Республики Узбекистан, устава, решений Общего собрания акционеров;</p> <p>- причинение Банка убытков и нанесение ущерба имущественным правам акционеров, в том числе связанных с существенным ухудшением финансово – хозяйственной деятельности, снижением прибыли и рентабельности Банка, неоправданным сокращением реализации работ и услуг;</p> <p>- наличие признаков или угрозы возникновения экономической несостоятельности (Банкротства) Банка, наличие устойчивой задолженности перед государственным бюджетом, внебюджетными фондами, по выплате заработной платы работникам.</p>	<p>46. Bank Kengashining vakolatlarini muddatidan ilgari bekor qilish masalalari bo'yicha Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida talablarning asoslari quyidagilardan iborat:</p> <p>- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, ustavga, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlariga rioya qilmaslik;</p> <p>- Bankka zarar keltirilishi va aksiyadorlarning mulkiy huquqlariga ziyon etkazilishi, shu jumladan Bank moliya-xo'jalik faoliyatining jiddiy yomonlashishi, foyda va rentabelligining pasayishi, ishlar va xizmatlarning realizatsiya qilinishi asossiz ravishda qisqartirilishi bilan bo'g'liq zararlar etkazilishi;</p> <p>- Bankning iqtisodiy nochorligi (Bankrotligi) yuzaga kelishi alomatlari yoki tahdidlari mavjudligi, davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg'armalar oldida, xodimlarga ish haqini to'lash bo'yicha barqaror qarzdorlikning mavjudligi.</p>
<p>47. В требовании о проведении внеочередного Общего собрания акционеров должны быть сформулированы вопросы, подлежащие внесению в повестку дня собрания, с указанием мотивов их внесения. В случае, если созыв внеочередного Общего собрания акционеров обусловлен внесением вопроса о досрочном прекращении полномочий членов Совета Банка, требования о созыве такого собрания помимо вопроса о досрочном прекращении полномочий Совета Банка должны содержать предложения о включении в повестку дня вопросов избрания нового состава Совета Банка.</p>	<p>47. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabnomada yig'ilish kun tartibiga kiritiladigan masalalar ularning kiritilish sabablari ko'rsatilgan holda ifodalanishi kerak. Agar Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish Bank Kengashi a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari bekor qilish to'g'risidagi masalani kiritish bilan bog'liq bo'lsa, bunday yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi talabnoma Bank Kengashining vakolatlarini muddatidan ilgari bekor qilish to'g'risidagi masaladan tashqari Bank Kengashining yangi tarkibini saylash masalalarini kun tartibiga kiritish to'g'risidagi takliflarni o'z ichiga olishi kerak.</p>
<p>48. Совет Банка не вправе вносить изменения в формулировки вопросов в повестку дня внеочередного Общего собрания акционеров, созываемого по требованию Ревизионной комиссии Банка или акционера (акционеров), являющегося владельцем не менее чем пяти процентов голосующих акций Банка.</p>	<p>48. Bank Kengashi Bank Taftish Komissiyasining yoki Bank ovoz beruvchi aksiyalarining eng kamida besh foizi egasi hisoblangan aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabnomalari bo'yicha chaqiriladigan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalar tuzilishiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega emas.</p>
<p>49. В случае если требование о созыве внеочередного Общего собрания акционеров исходит от акционера (акционеров), оно должно содержать имя (наименование) акционера (акционеров), требующего созыва собрания, с указанием количества, типа</p>	<p>49. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talabnoma aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan kiritilgan taqdirda, ushbu talabnoma bunday yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar)ga tegishli aksiyalar soni va turi qayd etilgan</p>

принадлежащих ему акций.	holda ularning ismi-sharifi (nomi)ni o'z ichiga olishi kerak.
50. Требование о созыве внеочередного Общего собрания акционеров подписывается лицом (лицами), требующим созыва внеочередного Общего собрания акционеров.	50. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talabnoma Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.
51. В течение 10 дней с даты предъявления требования Ревизионной комиссии или акционера (акционеров), являющегося владельцем не менее чем пяти процентов голосующих акций Банка, о созыве внеочередного Общего собрания Советом должно быть принято решение о созыве внеочередного Общего собрания акционеров либо об отказе в его созыве.	51. Taftish komissiyasi yoki Bank ovoz beruvchi aksiyalarining eng kamida besh foizi egasi hisoblangan aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talabnomalari taqdim qilingan sanadan boshlab 10 kun ichida Kengash tomonidan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida yoki bunday yig'ilishni chaqirish rad qilinishi to'g'risida qaror qabul qilinishi kerak.
52. Решение об отказе от созыва внеочередного Общего собрания акционеров по требованию Ревизионной комиссии Банка или акционера (акционеров), являющегося владельцем не менее чем пяти процентов голосующих акций Банка, может быть принято в случаях, если: - акционер (акционеры), требующий созыва внеочередного Общего собрания акционеров, не является владельцем предусмотренного частью первой настоящего пункта количества голосующих акций Банка; - ни один из вопросов, предложенных для внесения в повестку дня, не отнесен к компетенции Общего собрания акционеров; - вопрос, предлагаемый для внесения в повестку дня, не соответствует требованиям законодательства.	52. Bank Taftish komissiyasining yoki Bank ovoz beruvchi aksiyalarining eng kamida besh foizi egasi hisoblangan aksiyador (aksiyadorlar) talabnomalari bo'yicha Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad qilinishi to'g'risida qaror quyidagi holatlarda qabul qilinishi mumkin: - Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) mazkur bandning birinchi qismida nazarda tutilgan Bankning ovoz beruvchi aksiyalari soni egasi hisoblanmaydi; - kun tartibiga kiritish uchun taklif qilingan masalalarning hech biri Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlariga kiritilmagan; - kun tartibiga kiritish uchun taklif qilinayotgan masala qonun hujjatlari talablarga javob bermaydi.
53. Решение Совета Банка о созыве внеочередного Общего собрания акционеров или мотивированное решение об отказе от его созыва направляется лицам, требующим его созыва, не позднее трех рабочих дней с момента его принятия.	53. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish to'g'risidagi Bank Kengashining asoslangan qarori bunday yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan shaxslarga qaror qabul qilingan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirilmay yuboriladi.
54. Решение Совета Банка об отказе от созыва внеочередного Общего собрания акционеров может быть обжаловано в суд.	54. Bank Kengashining Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat arizasi berilishi mumkin.
55. В случае если в течение установленного пунктом 49 настоящего Положения срока Советом Банка не принято решение о созыве внеочередного Общего собрания акционеров или принято решение об отказе от его созыва, внеочередное Общее собрание акционеров может быть созвано лицами, требующими его созыва.	55. Mazkur Nizomning 49-bandida belgilangan muddat ichida Bank Kengashi tomonidan Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan holatda, Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi bunday yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin.
56. В этом случае расходы по подготовке к	56. Bunday holda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini

<p>проведению Общего собрания акционеров могут быть возмещены по решению Общего собрания акционеров за счет средств Банка.</p>	<p>o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish sarf-xarajatlari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga binoan Bank mablag'lari hisobiga qoplanishi mumkin.</p>
<p>57. Подготовку к проведению внеочередного Общего собрания акционеров проводит Совет Банка, либо в случаях, установленных законодательством лицо, созывающее Общее собрание акционеров в порядке, установленном настоящим положением.</p>	<p>57. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik Bank Kengashi tomonidan, yoki qonun hujjatlari bilan belgilangan holatlarda mazkur Nizom bilan belgilangan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirayotgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.</p>
<p><b>VI. КВОРУМ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ</b></p>	<p><b>VI. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI KVORUMI</b></p>
<p>58. Общее собрание акционеров правомочно (имеет кворум), если на момент окончания регистрации для участия в Общем собрании акционеров зарегистрировались акционеры (их представители), обладающие в совокупности более чем пятьюдесятью процентами голосов размещенных голосующих акций Банка.</p>	<p>58. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish yakunlangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ortiq ovozga ega aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qonuniy (kvorumga ega) hisoblanadi.</p>
<p>59. При отсутствии действительного кворума для проведения Общего Собрания Акционеров объявляется дата и место проведения нового Общего Собрания Акционеров. Изменение повестки при проведении нового Общего Собрания Акционеров не допускается.</p>	<p>59. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun haqiqiy kворум bo'lmasa, Aksiyadorlar yangi umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va joyi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning yangi umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibining o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.</p>
<p>60. Дата проведения нового Общего Собрания Акционеров должна быть отложена на то же самое время и место не ранее чем, на 11 (одиннадцать) дней, но не позднее, чем на 20 (двадцать) дней с момента переноса.</p>	<p>60. Aksiyadorlar yangi umumiy yig'ilishining sanasi xuddi o'sha vaqtga va joyga, ko'chirilgan kundan e'tiboran 11 (o'n bir) kundan erta, lekin 20 (yigirma) kundan kech bo'lmagan muddatga kechiktirilishi kerak.</p>
<p>61. Новое Общее Собрание Акционеров, созванное взамен несостоявшегося, правомочно, если на момент окончания регистрации для участия в нем зарегистрировались акционеры (их представители), обладающие в совокупности не менее, чем 40 (сорока) процентами голосов размещенных голосующих акций Банка. Сообщение о проведении повторного Общего собрания акционеров осуществляется в порядке, установленном настоящим положением.</p>	<p>61. O'tkazilmagan yig'ilish o'rniga chaqirilgan Aksiyadorlar yangi umumiy yig'ilishi, agar ushbu yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish yakunlangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ortiq ovozga ega aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, qonuniy hisoblanadi. Aksiyadorlarning takroriy Umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabardor qilish mazkur Nizom bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.</p>
<p><b>VII. РАБОЧИЕ ОРГАНЫ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ</b></p>	<p><b>VII. UMUMIY YIG'ILISHNING ISHCHI ORGANLARI</b></p>
<p>62. Рабочими органами Общего собрания являются: президиум, счетная комиссия, секретарь (секретариат).</p>	<p>62. Umumiy yig'ilishning ishchi organlari quyidagilardan iborat: Rayosat (presidium), sanoq komissiyasi, kotib (kotibiyat).</p>
<p>63. Президиум и Председательствующий Общего собрания акционеров избираются на Общем собрании акционеров. Общее собрание акционеров</p>	<p>63. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi rayosati va Raisi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Bank Boshqaruvi raisi</p>

ведет председатель Совета Банка, а в случае его отсутствия по уважительным причинам — один из членов Совета Банка.	tomonidan, uning uzrli sabablar boyicha yo’qligida esa - Bank Boshqaruvi a'zolaridan biri tomonidan olib boriladi.
64. Председательствующий Общего собрания акционеров возглавляет президиум собрания, обеспечивает ведение собрания и обладает для этого всеми полномочиями, необходимыми для надлежащего исполнения им своих обязанностей.	64. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi raisi yig'ilish rayosatiga rahbarlik qiladi, yig'ilish olib borilishini ta'minlaydi va o'z vazifalarini tegishli tarzda bajarishi uchun kerakli bo'lgan barcha vakolatlarga ega bo'ladi.
65. Председательствующий Общего собрания акционеров вправе разрешить проведение аудио и видеозаписи и трансляции Общего собрания акционеров в сети интернет.	65. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining raisi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi audio va video yozuvlari amalga oshirilishiga va uning Internet tarmog'ida namoyish qilinishiga ruxsat berish huquqiga ega.
66. Председательствующий Общего собрания руководит ходом собрания, координирует действия рабочих органов Общего собрания, определяет порядок обсуждения вопросов, ограничивает время выступления докладчиков, дает разъяснения по ходу ведения собрания и голосования, контролирует наличие порядка в зале.	66. Umumiy yig'ilish raisi yig'ilish jarayoniga rahbarlik qiladi, Umumiy yig'ilish ishchi organlari faoliyatini o'zaro muvofiqlashtiradi, masalalarni muhokama qilish tartibini belgilaydi, ma'ruzachilarning nutq so'zlash vaqtini cheklaydi, yig'ilish olib borilishi va ovoz berish jarayoni bo'yicha izohlar beradi, zalda tartib saqlanishini nazorat qiladi.
67. Председательствующий Общего собрания подписывает протокол Общего собрания.	67. Umumiy yig'ilish raisi Umumiy yig'ilish bayonnomasini imzolaydi.
68. Для подсчета голосов, регистрации акционеров для участия на Общем собрании акционеров, а также выдачи бюллетеней для голосования Советом Банка создается счетная комиссия, количественный и персональный состав которой утверждается Общим собранием акционеров.	68. Ovozlarni hisoblash, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini topshirish uchun Bank Kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tashkil etilib, uning son va shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.
69. В случае привлечения независимых экспертов для выполнения функций счетной комиссии работу счетной комиссии осуществляют они.	69. Sanoq komissiyasi vazifalarini bajarish uchun mustaqil ekspertlar jalb qilingan taqdirda, ular sanoq komissiyasining ishini amalga oshiradilar.
70. В составе счетной комиссии не может быть менее трех человек. В счетную комиссию не могут входить члены Совета Банка, Правления и Ревизионной комиссии Банка, а также лица, выдвигаемые на эти должности.	70. Sanoq komissiyasi tarkibi uch kishidan kam bo'lmasligi kerak. Sanoq komissiyasi tarkibiga Bank Kengashi, Bank Boshqaruvi va Taftish komissiyasi a'zolari, shuningdek ushbu lavozimlarga nomzodlari ko'rsatilayotgan shaxslar kiritilishi mumkin emas.
71. Голосование на Общем собрании акционеров осуществляется по принципу «одна голосующая акция Банка — один голос», за исключением случаев проведения кумулятивного голосования по выборам членов Совета Банка.	71. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish "Bankning bitta ovoz beruvchi aksiyasi - bitta ovoz" tamoyili asosida amalga oshiriladi, Bank Kengashi a'zolari saylovlari bo'yicha kumulyativ ovoz berish o'tkaziladigan holatlar bundan mustasno.
72. Голосование на Общем собрании акционеров по вопросам повестки дня осуществляется бюллетенями для голосования.	72. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish ovoz berish byulletenlari bilan amalga oshiriladi.
73. При голосовании засчитываются голоса по тем вопросам, по которым голосующим оставлен только один из возможных вариантов голосования. Бюллетени для голосования, заполненные с	73. Ovoz berishda ovoz beruvchilarga ovoz berish mumkin bo'lgan variantlardan bittasi qoldirilgan masalalar bo'yicha ovozlar hisoblanadi. Qaid etilgan talablar buzilgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb e'tirof



нарушением указанного требования, признаются недействительными и голоса по содержащимся в них вопросам не подсчитываются.	etiladi va ulardagi masalalar bo'yicha ovozlari hisobga olinmaydi.
74. В случае, если бюллетень для голосования содержит несколько вопросов, поставленных на голосование, несоблюдение требования, указанного в абзаце первом данного пункта в отношении одного или нескольких вопросов, не влечет за собой признания бюллетеня для голосования недействительным в целом.	74. Ovoz berish byulleteni ovoz berish uchun qo'yilgan bir necha masalani o'z ichiga olgan taqdirda, mazkur bandning birinchi xatboshisida qayd etilgan bir yoki bir necha masalaga tegishli talablarga rioya qilmaslik umuman ovoz berish byulleteni haqiqiy emas deb e'tirof etilishiga olib kelmaydi.
75. Для подсчета голосов, регистрации акционеров для участия в Общем собрании акционеров, а также выдачи бюллетеней для голосования Советом Банка создается счетная комиссия, количественный и персональный состав которой утверждается Общим собранием акционеров. Счетная комиссия в части исполнения возложенных на нее обязанностей является независимым постоянно действующим рабочим органом собрания и избирается Общим собранием акционеров по предложению Совета Банка.	75. Ovozlarni sanash, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini topshirish uchun Bank Kengashi tomonidan sanoq komissiyasi tashkil etilib, uning son va shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Sanoq komissiyasi o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda yig'ilishning mustaqil doimiy ishchi organi hisoblanadi va Bank Kengashining taklifiga binoan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi.
76. Срок полномочий счетной комиссии исчисляется с момента ее избрания Общим собранием акционеров до момента избрания (или переизбрания) нового состава счетной комиссии соответствующим собранием акционеров (годовым или внеочередным).	76. Sanoq komissiyasining vakolatlari muddati u Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylangan paytdan boshlab, aksiyadorlarning tegishli yig'ilishi (yillik yoki navbatdan tashqari) tomonidan sanoq komissiyasining yangi tarkibi saylangan (yoki qayta saylangan) paytgacha hizoblanadi.
77. При подготовке к проведению Общего собрания акционеров счетная комиссия по поручению Совета Банка осуществляет следующие функции: - на основании реестра составляет список акционеров, имеющих право на участие в Общем собрании акционеров; - выдает бюллетени для голосования и иные материалы Общего собрания, ведет учет выданных бюллетеней.	77. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda sanoq komissiyasi Bank Kengashi topshirig'i bilan quyidagi funktsiyalarni bajaradi: - reyestr asosida Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatini tuzadi; - ovoz berish byulletenlarini va Umumiy yig'ilishning boshqa materiallarini topshiradi, topshirilgan byulletenlarning hisobini yuritadi.
78. На Общем собрании акционеров счетная комиссия, избранная предыдущим Общим собранием акционеров, осуществляет следующие функции: - регистрирует акционеров (их представителей) для участия в Общем собрании; - ведет учет доверенностей и предоставляемых ими прав; - выдает бюллетени для голосования и иную информацию (материалы) Общего собрания; - предоставляет акционерам до проведения Общего собрания акционеров необходимую информацию по повестке дня;	78. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Aksiyadorlarning avvalgi umumiy yig'ilishi tomonidan saylangan sanoq komissiyasi quyidagi funktsiyalarni bajaradi: - Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlarni (ularning vakillarini) ro'yxatdan o'tkazadi; - ishonchnomalar va ular tomonidan beriladigan huquqlarning hisobini yuritadi; - ovoz berish byulletenlarini va Umumiy yig'ilishning boshqa ma'lumotlarini (materiallarini) topshiradi; - Aksiyadorlarning umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar aksiyadorlarga kun tartibi bo'yicha kerakli axborotni taqdim qiladi;

<p>- определяет наличие кворума Общего собрания акционеров.</p>	<p>- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kvorumi mavjudligini belgilaydi.</p>
<p>79. Счетная комиссия, состав которой был утвержден в ходе проходящего Общего собрания акционеров:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- разъясняет вопросы, возникшие в связи с реализацией акционерами (их представителями) права голоса на Общем собрании;</li> <li>- разъясняет порядок голосования по вопросам, выносимым на голосование;</li> <li>- обеспечивает установленный порядок голосования и права акционеров на участие в голосовании;</li> <li>- подсчитывает голоса и подводит итоги голосования;</li> <li>- составляет протокол об итогах голосования;</li> <li>- передает в архив бюллетени для голосования.</li> </ul>	<p>79. Tarkibi o'tayotgan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jarayonida tasdiqlangan sanoq komissiyasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- aksiyadorlar (ularning vakillari) tomonidan Umumiy yig'ilishda ovoz berish huquqi amalga oshirilishi bilan bog'liq yuzaga kelgan masalalarni izohlaydi;</li> <li>- ovozga berish uchun kiritiladigan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini izohlaydi;</li> <li>- ovoz berishning belgilangan tartibi va aksiyadorlarning ovoz berishda qatnashish huquqlarini ta'minlaydi;</li> <li>- ovozlarni hisoblab chiqadi va ovoz berish natijalarini chiqaradi;</li> <li>- ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnoma tuzadi;</li> <li>- ovoz berish byulletenlarini arxivga topshiradi.</li> </ul>
<p><b>VIII. ПОРЯДОК ВЕДЕНИЯ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ</b></p>	<p><b>VIII. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHINI OLIB BORISH TARTIBI</b></p>
<p>80. Порядок ведения Общего собрания акционеров утверждается в соответствии с настоящим Положением на каждом Общем собрании акционеров.</p>	<p>80. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini olib borish tartibi ushbu Nizomga muvofiq har bir Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlanadi.</p>
<p>81. Председатель Совета Банка предлагает избрать президиум и секретаря (секретариат) Общего собрания, а также в случае необходимости новый состав счетной комиссии.</p>	<p>81. Bank Kengashining raisi Umumiy yig'ilish rayosati va kotibini (kotibiyatini), shuningdek, zarur bo'lganda sanoq komissiyasining yangi tarkibini saylash taklifini kiritadi.</p>
<p>82. Порядок ведения Общего собрания предусматривает время начала и предполагаемого окончания работы собрания, продолжительность выступлений и перерывов, последовательность вопросов повестки дня, фамилии и должности докладчиков по вопросам повестки дня, порядок осуществления голосования и объявления его результатов.</p>	<p>82. Umumiy yig'ilishni olib borish tartibi yig'ilish ishi boshlanadigan va taxminiy yakunlanadigan vaqtni, chiqishlar va tanaffuslar davomiyligini, kun tartibidagi masalalar ketma-ketligini, kun tartibidagi masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning familiyalari va lavozimlarini, ovoz berishni amalga oshirish va uning natijalarini e'lon qilish tartibini nazarda tutadi.</p>
<p>83. Текущие вопросы, возникающие по ходу собрания, Председатель решает единолично, исходя из главного принципа: правом выступить на Общем Собрании Акционеров по обсуждаемому вопросу может воспользоваться каждый участник в пределах отведенного времени.</p>	<p>83. Yig'ilish davomida yuzaga keladigan joriy masalalar rais tomonidan quyidagi asosiy qoidaga asoslanib yakka holda hal qilinadi: Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida muhokama qilinadigan masala bo'yicha so'zga chiqish huquqidan har bir ishtirokchi belgilangan vaqt chegarasida foydalanishi mumkin.</p>
<p>84. На Общем собрании акционеров подробно раскрывается (объявляется) информации о размере вознаграждений и компенсаций Совета Банка, Правления Банка, а также о распределении чистой прибыли, размера дивидендов, с обоснованием</p>	<p>84. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Bank Kengashi, Bank Boshqaruvi mukofot pullari va kompensatsiyalar miqdori, shuningdek sof foydaning taqsimlanishi, dividendlar miqdorni (taklif qilinayotgan miqdori asoslangan, ularning Bank tomonidan qabul qilingan dividend siyosatiga</p>

<p>предлагаемого размера, оценки их соответствия принятой Банком дивидендной политике (в случае необходимости, пояснения и экономические обоснования объемов направления определенной части чистой прибыли на нужды развития Банка).</p>	<p>muvofiqligini baholangan holda) to'g'risida ma'lumotlar batafsil oshkor (e'lon) qilinadi (zarur hollarda, sof foydaning muayyan qismini Bankning rivojlanish ehtiyojlariga yo'naltirish hajmlari izohlanadi va iqtisodiy jihatdan asoslanadi).</p>
<p>85. Желаящие принять участие в обсуждении вопросов повестки дня подают секретарю (в секретариат) Общего собрания письменную заявку с указанием вопроса для обсуждения.</p>	<p>85. Kun tartibidagi masalalar muhokamasida ishtirok etishni istaganlar Umumiy yig'ilish kotibiga (kotibiyatiga) muhokama qilish uchun masala ko'rsatilgan holda yozma ariza beradilar.</p>
<p>86. После обсуждения всех вопросов повестки дня Председательствующий объявляет Общее собрание акционеров закрытым.</p>	<p>86. Kun tartibidagi barcha masalalar muhokama qilinganidan so'ng yig'ilish raisi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini yopiq deb e'lon qiladi.</p>
<p>87. Банк предоставляет лицу, принимавшему участие на Общем собрании акционеров, возможность произведения за счет такого лица копии заполненного им бюллетеня.</p>	<p>87. Bank Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etgan shaxsga bunday shaxs hisobidan uning tomonidan to'ldirilgan byulleten nusxasini olish imkoniyatini taqdim qiladi.</p>
<p><b>IX. ПРОТОКОЛ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ АКЦИОНЕРОВ</b></p>	<p><b>IX. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHI BAYONNOMASI</b></p>
<p>88. Количественный и персональный состав секретариата Общего собрания утверждается Общим собранием акционеров. В качестве секретаря Общего собрания акционеров может быть избран (вступать) Корпоративный консультант Банка.</p>	<p>88. Umumiy yig'ilish kotibiyatining miqdoriy va shaxsiy tarkibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Bankning korporativ maslahatchisi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kotibi sifatida saylanishi (tayinlanishi) mumkin.</p>
<p>89. Секретариат Общего собрания:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- протоколирует ход ведения Общего собрания;</li> <li>- ведет запись желающих принять участие в обсуждении вопросов повестки дня собрания по письменным заявкам;</li> <li>- составляет протокол Общего собрания акционеров в двух экземплярах не позднее десяти дней после закрытия Общего собрания акционеров.</li> </ul>	<p>89. Umumiy yig'ilish kotibiyati:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Umumiy yig'ilishni olib borish jarayoni bayonnomasini tuzadi;</li> <li>- yozma arizalar bo'yicha yig'ilish kun tartibidagi masalalarni muhokama qilishda ishtirok etishni istaganlar qaydnomalarini yuritadi;</li> <li>- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yopilgandan so'ng o'n kundan kechiktirmay Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasini ikki nusxada tuzadi`.</li> </ul>
<p>90. В протоколе Общего собрания акционеров указываются:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- дата, место и время проведения Общего собрания акционеров;</li> <li>- общее количество голосов, которыми обладают акционеры — владельцы голосующих акций Банка;</li> <li>- количество голосов, которыми обладают акционеры, принимающие участие в собрании;</li> <li>- председательствующий (президиум) и секретарь (секретариат) собрания, повестка дня собрания;</li> <li>- основные положения выступлений, вопросы, поставленные на голосование, итоги голосования и принятые собранием решения.</li> </ul>	<p>90. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, joy va vaqt;</li> <li>- Bank ovoz beruvchi aksiyalariga ega aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;</li> <li>- yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;</li> <li>- yig'ilish raisi (rayosati) va kotibi (kotibiyati), yig'ilish kun tartibi;</li> <li>- chiqishlarning asosiy mazmuni, ovozga qo'yilgan masalalar, ovoz berish natijalari va yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlar.</li> </ul>

<p>- в случае проведение аудио- и видеозаписи и трансляции Общего собрания акционеров в сети интернет, также указывается данная информация.</p>	<p>- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi audio va video yozuvlari amalga oshirilsa va Internet tarmog'ida namoyish qilinsa, ushbu ma'lumotlar ham qayd etiladi.</p>
<p>91. Оба экземпляра протокола Общего собрания акционеров подписываются Председательствующим на Общем собрании и секретарем Общего собрания акционеров.</p>	<p>91. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bayonnomasining har ikki nusxasi Umumiy yig'ilishga raislik qiluvchi va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kotibi tomonidan imzolanadi.</p>
<p>92. Протоколы счетной комиссии особым решением собрания не утверждаются, а принимаются к сведению и подлежат приобщению к протоколу Общего собрания.</p>	<p>92. Sanoq komissiyasining bayonnomalari yig'ilishning maxsus qarori bilan tasdiqlanmaydi, balki ma'lumot uchun qabul qilinadi va Umumiy yig'ilish bayonnomasiga qo'shib qo'yilishi kerak.</p>
<p>93. После подписания протокола Общего собрания акционеров счетная комиссия передает в архив Банка на хранение документы собрания, включая регистрационный список Общего собрания, опечатанные бюллетени для голосования, протоколы об итогах голосования, подписанные членами счетной комиссии, и протокол Общего собрания акционеров.</p>	<p>93. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining bayonnomasi imzolanganidan so'ng sanoq komissiyasi yig'ilish hujjatlarini, shu jumladan Umumiy yig'ilishning qayd etish ro'yxatini, muhrlangan ovoz berish byulletenlarini, sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan imzolangan ovoz berish natijalari to'g'risidagi bayonnomalarni hamda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasini saqlash uchun Bank arxiviga topshiradi.</p>
<p>94. Все решения (протокола) Банка, оформляются письменно в соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан.</p>	<p>94. Bankning barcha qarorlari (bayonnomalari) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq yozma ravishda rasmiylashtiriladi.</p>
<p>95. В случае, если владельцем Банка является единственный акционер, владеющий 100% акций Банка, решения по вопросам, отнесенным к компетенции Общего Собрания Акционеров, будут обращены и приняты единственным акционером в виде решения.</p>	<p>95. Bank egasi Bankning 100% aksiyalariga egalik qiladigan yagona aksiyador bo'lgan taqdirda, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar yagona aksiyadorga havola qilinadi va u tomonidan qaror ko'rinishida qabul qilinadi.</p>
<p><b>X. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ (АКЦИОНЕРА) БАНКА</b></p>	<p><b>X. BANK (AKSIYADOR) HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI</b></p>
<p>96. Простая акция дает ее владельцу, за исключением случаев предусмотренных Уставом Банка, право на участие на Общем Собрании Акционеров Банка с правом голоса по всем вопросам в рамках его компетенции по принципу «одна акция - один голос», а также право на получение дивидендов, а в случае ликвидации Банка - право на получение части его имущества в соответствии с принадлежащей ему долей.</p>	<p>96. Oddiy aksiya o'z egasiga, Bank Ustavida nazarda tutilgan hollar istisno qilinganda, o'z vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida "bitta aksiya - bitta ovoz" tamoyiliga ko'ra qatnashish huquqini, shuningdek dividendlar olish huquqini va Bank tugatilgan taqdirda – unga tegishli ulushiga muvofiq Bank mol-mulkingning bir qismini olish huquqini beradi.</p>
<p>97. Каждый акционер имеет следующие, без ограничения, права: 1) быть включенным в реестр акционеров Банка;</p>	<p>97. Har bir aksiyador cheklanmagan holda quyidagi huquqlarga ega: 1) Bank aksiyadorlari reyestriga kiritilish; 2) o'zi haqida investitsiya vositachisidagi va/yoki</p>



<p>2) получать в отношении себя выписки со счета депо в инвестиционном посреднике и/или Центральном депозитарии ценных бумаг;</p> <p>3) получать часть прибыли Банка в виде дивидендов;</p> <p>4) в порядке, установленном законодательством, на основании доверенности передавать своему представителю (представителям) права (часть прав), вытекающие из владения акциями Банка;</p> <p>5) получать часть имущества в случае ликвидации Банка, в соответствии с принадлежащей ему долей;</p> <p>6) участвовать в управлении Банком посредством голосования на Общих Собраниях Акционеров;</p> <p>7) получать полную и достоверную информацию о результатах финансово-хозяйственной деятельности Банка в пределах, установленных Советом Банка и действующим законодательством Республики Узбекистан;</p> <p>8) свободно распоряжаться полученными дивидендами и/или акциями;</p> <p>9) защищать свои права в уполномоченном государством органе по регулированию и координации рынка ценных бумаг, а также в суде;</p> <p>10) требовать возмещения причиненных им убытков в установленном порядке;</p> <p>11) страховать риски, связанные с возможными убытками и (или) потерями части прибыли при приобретении Акций;</p> <p>12) объединяться в ассоциации и другие общественные организации с целью представления и защиты своих интересов;</p> <p>13) Установление ограничения на отчуждение акций не лишает права акционера — владельца этих Акции участвовать в управлении Банком и получать дивиденды по ним в порядке, установленном законодательством.</p>	<p>Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidagi depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;</p> <p>3) Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;</p> <p>4) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnoma asosida Bank aksiyalariga egalik qilishdan kelib chiqadigan huquqlarni (huquqlarning bir qismini) o'z vakiliga (vakillariga) topshirish;</p> <p>5) Bank tugatilgan taqdirda o'ziga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;</p> <p>6) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Bankni boshqarishda ishtirok etish;</p> <p>7) Bank Kengashi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi tomonidan belgilangan chegaralar doirasida Bankning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va to'g'ri axborot olish;</p> <p>8) olgan dividendlar va/yoki aksiyalarini erkin tasarruf etish;</p> <p>9) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;</p> <p>10) unga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplashni talab qilish;</p> <p>11) Aksiyalarni sotib olishda zarar ko'rish va (yoki) foydaning bir qismini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq xatarlarni sug'urtalash;</p> <p>12) o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalar va boshqa jamoat tashkilotlariga birlashish;</p> <p>13) Aksiyalarni boshqalarga o'tkazish bo'yicha cheklovlarning belgilanishi ushbu Aksiyalar egasi bo'lgan aksiyadorni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bankni boshqarishda ishtirok etish va ular bo'yicha dividendlar olish huquqidan mahrum qilmaydi.</p>
<p>98. Акционером Банка является юридическое или физическое лицо, занесенное в реестр акционеров. Акционер обязан своевременно информировать инвестиционного посредника</p>	<p>98. Aksiyadorlar reyestriga kiritilgan yuridik yoki jismoniy shaxs Bank aksiyadori hisoblanadi. Aksiyador har qanday tegishli o'zgarishlar to'g'risida aksiyalar bilan bog'liq huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish xizmatlarini ko'rsatuvchi</p>

<p>и/или Центральный депозитарий ценных бумаг, оказывающих услуги по учету прав, связанных с акциями, о каких-либо соответствующих изменениях. В случае непредставления им информации об изменении соответствующих данных, Центральный депозитарий ценных бумаг и инвестиционный посредник, оказывающие услуги по учету прав на его акции, не несут ответственности за причиненные, в связи с этим акционеру убытки.</p>	<p>investitsiya vositachisini va/yoki Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysini o'z vaqtida xabardor qilishi shart. U tegishli ma'lumotlarning o'zgarganligi to'g'risida ma'lumot bermagan taqdirda, uning aksiyalariga bo'lgan huquqlarini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi va investitsiya vositachisi shu munosabat bilan aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.</p>
<p>99. Права на акции переходят к приобретателю акций с момента внесения соответствующей приходной записи по счету депо приобретателя в установленном порядке и подтверждаются выпиской со счета депо, выдаваемой инвестиционным посредником и/или Центральным депозитарием ценных бумаг в порядке, установленном законодательством. Права, удостоверяемые акцией, переходят к их приобретателю с момента перехода прав на акцию. Выписка со счета депо является документом, удостоверяющим права акционера на акции, выдаваемым инвестиционным посредником и (или) Центральным депозитарием ценных бумаг. Участие акционера в Общем Собрании Акционеров Банка, получение им дивидендов и осуществление иных прав, предусмотренных законодательством, производится на основании реестра акционеров Банка, сформированного на определенную дату. Ко всем акционерам обеспечивается одинаковое отношение вне зависимости от их доли, уровня доходов, пола, расы, вероисповедания, национальности, языка, социального происхождения, личного и социального положения.</p>	<p>99. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hizobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda investitsiya vositachisi va/yoki Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularning oluvchisiga ushbu aksiyaga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi. Investitsiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma aksiyadorning aksiyalarga bo'lgan huquqlarini tasdiqlovchi hujjatdir. Aksiyadorning Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida ishtirok etishi, u tomonidan dividendlar olinishi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarning amalga oshirilishi, ma'lum bir sanaga tuzilgan Bank aksiyadorlari reyestri asosida amalga oshiriladi. Barcha aksiyadorlarga nisbatan ularning ulushi, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy holatidan qat'i nazar bir xil munosabatda bo'lish ta'minlanadi.</p>
<p>100. Обязанности акционеров Банка: 1) оплатить акции в установленном порядке, размерах и в установленные сроки; 2) соблюдать требования Устава Банка и других соответствующих внутренних документов; 3) в порядке, предусмотренном действующими законодательными актами и н</p>	<p>100. Bank aksiyadorlarining majburiyatlari: 1) aksiyalar uchun belgilangan tartibda, miqdorda va belgilangan muddatda haq to'lash; 2) Bank Ustavi va boshqa tegishli ichki hujjatlar talablariga rioya qilish; 3) amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bank Ustavida nazarda tutilgan tartibda, Bank Boshqarish organlarining qarorlariga amal qilish;</p>

<p>Уставом Банка, руководствоваться решениями Органов управления Банка;</p> <p>4) не разглашать сведения, составляющие банковскую или коммерческую тайну, а также содержание других конфиденциальных документов (сведения) Банка;</p> <p>5) предоставить соответствующую информацию, запрашиваемую Банком для обеспечения соответствия требованиям Закона Республики Узбекистан «О банках и банковской деятельности»;</p> <p>6) акционеры несут также другие обязательства, предусмотренные действующим законодательством и Уставом Банка.</p>	<p>4) bank yoki tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni, shuningdek Bankning boshqa maxfiy hujjatlari (ma'lumotlari) mazmunini oshkor qilmaslik;</p> <p>5) O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi Qonuni talablariga rioya etilishini ta'minlash uchun Bank tomonidan so'ralgan tegishli ma'lumotlarni taqdim etish;</p> <p>6) aksiyadorlar amaldagi qonun hujjatlari va Bank Ustavida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham egadirlar.</p>
<b>XI. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ</b>	<b>XI. YAKUNIY QOIDALAR</b>
101. Настоящее Положение, а также изменения и дополнения к нему, утверждаются Общим собранием акционеров Банка.	101. Ushbu Nizom, shuningdek unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.
102. Настоящее Положение составлено на двух языках, английском и русском. В случае расхождений между двумя версиями английский язык имеет преваляющую силу.	102. Ushbu Nizom ikki tilda, ingliz va rus tillarida tuzilgan. Ikkala versiya o'rtasida farq bo'lsa, ingliz tili ustunlik qiladi.